



UDK:37.018.43:316.624

Lobarxon ERYIGITOVA,
Central Asian medical universiteti o'qituvchisi, PhD
E-mail: lobarxoneryigitova@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti professori M.Abduraxmanova taqrizi asosida

E.DYURKGEYMNING IJTIMOY HAMJIHATLIK VA ANOMIYA NAZARIYASI ASOSIDA YOLG'IZ KEKSALIK MUAMMOSINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada yolg'iz keksalik fenomeniga turli sotsiologik ilmiy maktablar nuqtai nazaridan yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada Emil Dyurkgeymning ijtimoiy hamjihatlik va anomiya nazariyasi asosida yolg'iz keksalik muammosi sotsiologik jihatdan tahlil qilingan. Muallif yolg'iz keksalikning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar tizimi va ma'naviy birlik bilan bog'liqligi haqida ilmiy xulosalarni asoslashga harakat qilgan. Shuningdek, zamonaviy O'zbekiston sharoitida keksalarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilishning dolzarb yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: yolg'iz keksalik, sotsiologik maktablar, funksionalizm, simvolik interaksionizm, gerontologiya, ijtimoiy izolyasiya, modernizatsiya, ijtimoiy integratsiya, anomiya, ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy faktlar, sotsiologik tahlil.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ОДИНОКОЙ СТАРОСТИ НА ОСНОВЕ ТЕОРИИ СОЦИАЛЬНОЙ СОЛИДАРНОСТИ И АНОМИИ Э. ДЮРКГЕЙМА

Аннотация

В данной статье автор попытался обосновать научные выводы о связи одинокой старости с социальными отношениями, системой ценностей и духовным единством в обществе. Автор проанализировал проблему одиночества пожилых людей с социологической точки зрения на основе социальной солидарности и аномии Э.Дюркгейма. Также показаны современные направления интеграции пожилых людей в общественную жизнь в условиях современного Узбекистана. Автор попытался обосновать научные выводы о связи одиночество в обществе. Также показаны современные направления интеграции пожилых людей в общественную жизнь в условиях современного Узбекистана.

Ключевые слова: одинокая старость, социологические школы, функционализм, символический интеракционизм, геронтология, социальная изоляция, модернизация, социальная интеграция, аномия, социальная сплоченность, социальные факты, социологический анализ.

A SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF LONELY OLD AGE BASED ON E. DURKHEIM'S THEORY OF SOCIAL SOLIDARITY AND ANOMIE

Annotation

The author attempts to substantiate scientific findings regarding the connection between lonely old age and social relations, value systems, and spiritual unity in society. The author analyzed the problem of loneliness among the elderly from a sociological perspective based on E.Durkheim's theories of social solidarity and anomie. Current trends in the integration of older adults into public life in modern Uzbekistan are also presented. The author attempts to substantiate scientific findings regarding the connection between lonely old age and social relations, value systems, and spiritual unity in society. Current trends in the integration of older adults into public life in modern Uzbekistan are also presented.

Key words: lonely old age, sociological schools, functionalism, symbolic interactionism, gerontology, social isolation, modernization, social integration, anomie, social cohesion, social facts, sociological analysis.

Kirish. Yosh qarishi bilan inson hayotidagi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar natijasida shaxs ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqlardan chetlashib, yolg'izlik holatiga duch keladi. Yolg'iz keksalik nafaqat psixologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlariga ega bo'lgan murakkab sotsiologik muammodir. Shu boisdan ham turli sotsiologik maktablar bu masalaga o'z nuqtai nazaridan nazariy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Bu borada funksionalizm maktabi vakili Emil Dyurkgeymning ijtimoiy integratsiya nazariyasi ahamiyatlidir. Mazkur nazariyaga ko'ra, har bir individ jamiyatda muayyan funksiyani bajaradi. Kexsa avlodning yolg'izlikka moyilligi jamiyatdagi institutlar - oila, mehnat bozori, sog'liqni saqlash va boshqa tizimlarning ularni to'liq qo'llab-quvvatlamasligi bilan bog'liq. Klassik sotsiologlardan Talkott Parsons fikricha esa, jamiyat barqarorligi ijtimoiy rollarning mutanosibligiga bog'liq. Kexsa

insonning mehnat faoliyatidan chetlashishi uning ijtimoiy rolini yo'qotishiga, natijada ijtimoiy izolyasiya va yolg'izlik holatiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Funksionalizm ilmiy maktabi namoyondalarining ilmiy nazariy qarashlaridan farqli tarzda simvolik interaksionizm maktabidagi yondashuvda Jorj Gerbert Mid va Gyerber Blyumer tomonidan ishlab chiqilgan simvolik interaksionizm maktabiga vakillari qarashlarida ilgari surilgan g'oyalarda shaxsning ijtimoiy mavqei va o'ziga bo'lgan munosabati boshqalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Keksalarning yolg'izlikka duchor bo'lishi - ijtimoiy munosabatlar tizimidagi rollar va identifikatsiyaning o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, zamonaviy O'zbekiston misolida ularning ilmiy xulosalari tahlil qilinganda mamlakatimizdagi urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi va nuklear oilaning ustuvorligi natijasida keksalarning ma'naviy

va jismoniy yordamsiz qolishi yolg'izlikni kuchaytiradi degan xulosaga kelishimiz mumkin [5].

Yana bir boshqa oqim-fyomenologiya va subyektiv tajriba nazariyasi namoyondalari A. Shyus va P. Bergerlar mazkur masalaga boshqacha yondashuvni taklif qilganlar. Ular ta'kidlaganidek, har bir ijtimoiy voqelik insonning sub'yektiv tajribasi orqali anglanadi. Yolg'iz keksa inson uchun "yolg'izlik" nafaqat tashqi holat, balki ichki kechinmalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan yolg'izlik – bu ijtimoiy voqelikning shaxsiy tafsiri. Hozirgi zamonaviy jamiyatlarda ko'plab keksalar "ahvolimni hech kim tushunmaydi" degan fikrni bildirishlari, yolg'izlikning fenomenologik mohiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Gerontologik nazariyalar tahlili misolida mazkur nazariyani ko'rib chiqadigan bo'lsak esa yana bir boshqacha yondashuvni kuzatishimiz mumkin. Gerontologiya nazariyasining taniqli namoyondalari E.Kyunengeym va Ye.Henri ning ilmiy izlanishlarida ham yolg'iz keksalikning sotsiologik tahlili salmoqli o'rin tutadi.

Bugungi kunga qadar geyrontologiyadagi asosiy nazariyalardan biri – disengagement nazariyasi bo'lib, u keksalarning jamiyatdan sekinlik bilan chetlashishini tabiiy jarayon sifatida izohlaydi. Biroq faollik nazariyasi bu fikrga qarshi chiqib, keksalar faol ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etganda ruhiy salomatlik va ijtimoiy integratsiya kuchayishini ta'kidlaydi. Kontinuitet nazariyasi esa insonning yoshlikdagi faollik va munosabat uslubini qarilikda ham davom etadi, degan fikrni ilgari suradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. E.Dyurkgeymning ijtimoiy hamjihatlik va anomiya nazariyasi asosida yolg'iz keksalik muammosining sotsiologik tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy O'zbekiston jamiyati misolida yolg'iz keksalik holatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bizda "Mahalla" instituti, o'tkan yillar davomida taraqqiyotimizda "Keksalarni e'zozlash yili" davlat dasturlari va "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" kabi tashabbuslar doirasida ko'plab amaliy ishlar hayotga tadbiiq etildi. Qolaversa, 2017-yildan buyon mazkur yo'nalishdagi amaliy ishlar ko'lami yanada kengayib, yolg'iz keksalarni qo'llab – quvvatlashda yanada samarali natijalar bermoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ham butun dunyoda ro'y berayotganidek, urbanizatsiya, migratsiya va raqamli asrning kommunikatsiya tizimlaridagi o'zgarishlar natijasida yolg'izlikning yangi shakllari kuzatilmoqda. Bu borada olib borilayotgan sotsiologik tadqiqotlar keksa avlodning 37-42 foizi yolg'izlik hissini doimiy ravishda his etishini ko'rsatmoqda [1].

Yolg'iz keksalik – ko'p qirrali ijtimoiy muammo bo'lib, uning yechimi faqat sotsiologik emas, balki psixologiya, tibbiyot va ijtimoiy siyosat sohalari o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi. Sotsiologik ilmiy maktablar yolg'izlik muammosini har xil nazariy nuqtai nazardan izohlaydi, ammo umumiy nuqta – ijtimoiy integratsiyaning ta'minlanishi keksa insonning hayot sifatini belgilaydi. O'zbekiston sharoitida yolg'iz keksalar uchun ijtimoiy xizmatlar, madaniy faollik klublari va mahalla darajasida psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish zarur.

Fikrimizcha, bu ijtimoiy muammoni hal etish avvalo u bilan bog'liq ilmiy nazariyalarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Xususan, bu boradagi ilmiy qarashlarda E.Dyurkgeymning nazariy qarashlari e'tiborimizni tortdi.

Industrial va postindustrial jamiyatlarda keksalarning ijtimoiy izolyasiyasi hamda yolg'izlik holati sotsiologiya fani uchun muhim tahlil ob'yekti hisoblanadi. Bu jarayonni,

ayniqsa, Emil Dyurkgeym nazariyalari orqali chuqurroq anglash mumkin. Dyurkgeym ijtimoiy hamjihatlik, mehnat taqsimoti, anemiya va individualizm masalalari orqali insonning jamiyatdan uzilishi va yolg'izlikka moyilligini izohlab bergan. Shu nuqtai nazardan, yolg'iz keksalik Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik va anomiya nazariyalariga mos holda o'rganilishi jamiyatdagi ma'naviy hamda madaniy o'zgarishlarni anglashda muhimdir [3].

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858–1917) o'z nazariyasida jamiyatni bir butun tizim sifatida ko'rib, uning har bir qismi umumiy hamjihatlikka hissa qo'shishi kerakligini ta'kidlaydi. Dyurkgeymning "ijtimoiy faktlar", "hamjihatlik", "anomiya" kabi tushunchalari yolg'iz keksalikni chuqur sotsiologik tahlil etish imkonini beradi. Emil Dyurkgeym sotsiologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirgan ilk olimlardan biri bo'lib, uning fikricha, ijtimoiy faktlar — shaxsdan mustaqil, tashqi kuch sifatida inson xulq-atvoriga ta'sir etuvchi holatlardir. Uning 1893 yilda yozilgan "Ijtimoiy mehnat taqsimoti haqida" asarida jamiyatdagi birlik va hamjihatlik shakllari haqida so'z boradi. "O'z joniga qasd qilish" asarida esa shaxsning jamiyatdan uzilishi, yolg'izlik va anomiya muammosini tahlil qiladi. Umumiy qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida talqin qilinishi haqida E.Dyurkgeym "Diniy hayotning ibtidoiy shakllari" asarida o'z qarashlarini bayon etgan [4].

Taniqli sotsiolog olimning bunday nazariyalari keksalarning ijtimoiy faoliyatdan chetlashishi va ma'naviy izolyasiyasi kabi holatlarni tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, jamiyatda keksalarning ijtimoiy mavqecini anglash va ularning yolg'izlik holatiga sotsiologik yondashuv zamonaviy ijtimoiy tahlilning muhim yo'nalishlaridan biridir. E.Dyurkgeymning asarlarida insonning jamiyatdan ajralishi, ijtimoiy bog'lanishning susayishi va ma'naviy bo'shliq tuyg'usi keng yoritilgan.

Dyurkgeym ijtimoiy hamjihatlik nazariyasida ham jamiyatdagi hamjihatlikning ikki turini aniqlashtirgan. Bular myexanik hamjihatlik - bu an'anaviy jamiyatlarga xos bo'lib, insonlar umumiy qadriyatlar va urf-odatlar asosida birlashadi. Organik hamjihatlik bu – industrial jamiyatlarda shakllanadi, bunda ijtimoiy rollar va mehnat vazifalarining turiligi insonlarni o'zaro bog'laydi. Biroq zamonaviy jamiyatdan organik hamjihatlik kuchaygan sari, ayrim toifalar – jumladan, keksalar ijtimoiy aloqalar tizimidan chetda qolishi mumkin. Chunki ularning mehnat faolligi tugashi bilan jamiyatdagi ijtimoiy rollari pasayadi. Dyurkgeym nuqtai nazardan bu holat ijtimoiy integratsiyaning pasayishi, ya'ni shaxsning umumiy hamjihatlik tizimidan uzilishi natijasidir. Dyurkgeymning "O'z joniga qasd qilish" asarida anomiya tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Uning ta'kidlashicha, anomiya – bu jamiyatdagi qoidalar, me'yorlar va ma'naviy nazoratning yo'qolishi holatidir. Yolg'iz keksalar ana shunday anomik vaziyatning qurboniga aylanadi, chunki ular jamiyatdagi yangi madaniy va texnologik o'zgarishlarga moslasha olmaydi, oila va mahalla munosabatlaridagi an'anaviy bog'liqlik yo'qola boradi. Dyurkgeym yozadi: "Inson faqat jamiyat orqali ma'naviy kuchga ega bo'ladi; u jamiyatdan uzilgan sari o'zini yo'qotadi." Bu fikr yolg'iz keksalar hayotida to'liq namoyon bo'lishini quyidagi ko'rinishlarda kuzatishimiz mumkin: ijtimoiy munosabatlar susayishi, aloqalar uzilishi va ahamiyatsizlik hissi ularni ijtimoiy yolg'izlikka olib kelishi. Dyurkgeym individualizmni jamiyatning ilmiy va ma'naviy taraqqiyoti natijasi sifatida qabul qilgan bo'lsa-da, uning ortidan keluvchi ijtimoiy parokandalik xavfini ham ta'kidlaydi [5].

Bugungi O'zbekiston jamiyatida ham ayrim keksalar yosh avlodning yangi individual qadriyatlarini tizimiga moslasha olmayotgani sababli ijtimoiy izolyasiyada qolmoqda. Masalan, urbanizatsiya jarayoni, raqamli texnologiyalar va migratsiya

oqibatida oilaviy munosabatlar zaiflashgan. Bu Dyurkgeym ta'biricha, "ijtimoiy integratsiyaning parchalanishi"dir. Keksalar uchun bu nafaqat ma'naviy bo'shliq, balki yolg'izlikning psixologik va sotsiologik ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Dyurkgeym nazariyasiga ko'ra, yolg'iz keksalikni faqat shaxsiy muammo sifatida emas, balki jamiyatning me'yoriy tizimidagi o'zgarishlar natijasi sifatida talqin qilish lozim. Uningcha, har bir ijtimoiy holat – bu jamiyatning umumiy strukturasi bog'liq voqelikdir. Shu sababli, keksalarning yolg'izlik holatini hal qilish uchun faqat psixologik yordam emas, balki ijtimoiy birdamlikni tiklash – mahalla institutini faollashtirish, keksalarni madaniy va ijtimoiy hayotga jalb etish zarur [3].

Keksalar ko'p hollarda nafaqaga chiqqach, mehnat munosabatlaridan chetlashgani sababli, ijtimoiy aloqalarni yo'qotadilar. Bu Dyurkgeym ta'limotida "ijtimoiy integratsiyaning pasayishi" sifatida tavsiflanadi. Yolg'iz keksalik muammosi Dyurkgeym ta'limoti nuqtai nazaridan jamiyatning ijtimoiy integratsiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Dyurkgeym nazariyasida yolg'iz keksalik ijtimoiy izolyasiya ko'rinishi sifatida talqin etilgan. Uning fikricha, ijtimoiy izolyasiya insonda ma'naviy bo'shliq va ruhiy iztirobni kuchaytiradi. Bu holat keksalardagi yolg'izlikning asosiy ijtimoiy ildizidir.

O'zbekistonda keksalar jamiyatning muhim ijtimoiy qatlamini tashkil etadi. Davlat statistikasi qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda 60 yoshdan yuqori aholi umumiy aholining 10,8 foizini tashkil etgan. Dyurkgeymcha tahlilda bu demografik ko'rsatkich yolg'iz keksalik muammosini aniqlashda muhim mezondir. So'nggi yillarda urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi va axborot texnologiyalarining o'sishi natijasida ko'plab keksalarning ijtimoiy izolyasiyasi kuchaymoqda. Ular ko'pincha yolg'iz, psixologik qo'llovsiz va madaniy aloqalardan chetda

qolmoqda. Dyurkgeym nazariyasining zamonaviy sotsiologik tadqiqotlardagi qiymati salmoqli va dolzarbdir [2].

Bugungi kunda O'zbekistonda yolg'iz keksalik muammosining paydo bo'lishiga yuotimizda ham kuzatilayotgan urbanizatsiya va migratsiya natijasida farzandlarning boshqa hududlarga ko'chishi, yosh avlodning mehnat faoliyati bilan bandligi sababli ota-onalarga yetarli e'tibor bermasligi, keksalarning iqtisodiy faoliyatdan chetda qolishi kabi sabablar omil bo'lishi bilan bog'liq. Bu omillar Dyurkgeym nazariyasidagi ijtimoiy hamjihatlikning yetishmasligi va anomiya holati bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Dyurkgeym nazariyasi keksalarning ijtimoiy izolyasiyasini anglash, jamiyatdagi insonlararo munosabatlarni mustahkamlash va ijtimoiy hamjihatlikni tiklash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Dyurkgeymning "Diniy hayotning ibtidoiy shakllari" asarida u jamiyatning ma'naviy birligini "umumiy ishonch va qadriyatlar tizimi" orqali ta'minlanishini ta'kidlaydi. Yolg'iz keksalikka qarshi kurashda aynan ma'naviy hamjihatlik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida keksalarning hayotiy tajribasi, ma'naviy so'zlari va axloqiy qiymatlari jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi resurs sifatida qaralishi zarur. Bu, o'z navbatida, Dyurkgeym ta'limotidagi "jamiyatni ma'naviy organizm sifatida" tushunish g'oyasi bilan hamohangdir.

Emil Dyurkgeym yolg'iz keksalik muammosini to'g'ridan-to'g'ri yozmagan bo'lsa-da, uning ijtimoiy integratsiya, anomiya va hamjihatlik haqidagi ilmiy g'oyalari bu muammoni sotsiologik talqin etishda katta nazariy asos bo'ladi. Uning nazariyasi keksalarning yolg'izligini jamiyatning umumiy tuzilishi bilan bog'laydi va bu holatni ijtimoiy tizim darajasida hal etish zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, Dyurkgeymcha yondashuv yolg'iz keksalikni faqat shaxsiy emas, balki jamiyatning ma'naviy va me'yoriy tuzilmasiga daxldor ijtimoiy muammo sifatida ko'radi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Keksalarni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi" haqidagi qarori, 2024.02.08.
3. Ahmedov A. Keksalar ijtimoiy hayotining sotsiologik tahlili. Toshkent, 2022.
4. Karimov N. "Keksalar ijtimoiy izolyatsiyasi muammolari", O'zbekiston sotsiologiyasi jurnali, №3, 2023.
5. Saidov Sh. Dyurkgeym sotsiologiyasi va uning zamonaviy talqini. TDYU. 2023.